BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kambarova Maxfuza Botirovna
Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati bosh o'qituvchisi (doktorant)
kambarovamahfuza9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativlik qobiliyatining o'ziga xosligi haqida gap borar ekan. Bugungi o'qituvchilari zamon bilan hamnafas bo'lishi, o'quvchilari qanday fikr va g'oyalar ta'sirida yashayotganini tushunishi hamda ular talabiga mos holda bo'lishi ayni haqiqat. Zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni shuningdek doimiy kasbiy rivojlanishni balki, o'z kasbiga o'ziga xos ijodiy yondashuvni talab etadi.

Kalit so'zlar: kreativlik, zamonaviy, interfaol, iqtidor, yaratuvchanlik, qiziqtirish, takomillashtirish, pedagogik ijodkorlik, standart, nostandart, yondashuv, takomillashtirish

Аннотация. В статье говорится об уникальности творчества будущего учителя музыки. Несомненно, что сегодняшние учителя должны идти в ногу со временем, понимать мысли и идеи своих учеников и чутко реагировать на их потребности. Внедрение современных стандартов требует от учителя не только педагогического мастерства и постоянного профессионального развития, но и уникального творческого подхода к своей профессии.

Ключевые слова: креативность, современный, интерактивный, талант, творчество, интерес, совершенствование, педагогическое творчество, стандарт, нестандарт, подход, улучшение

Abstract. This article talks about the uniqueness of the future music teacher's creativity. It is a fact that today's teachers must keep up with the times, understand the thoughts and ideas of their students, and be responsive to their needs. The implementation of modern standards requires not only pedagogical skills and continuous professional development from the teacher, but also a unique creative approach to his profession.

Keywords: creativity, modern, interactive, talent, creativity, interest, improvement, pedagogical creativity, standard, non-standard, approach, improvement

Kirish

Biz yashayotgan olam kundan – kunga tanib bolmas darajada o'zgarib, rivojlanib borayapti. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab

ISSN 3030-3907

etilmoqda. O‘zbekiston ta‘lim tizimi dunyo ta‘lim tizimi makoniga jadal kirib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida juda muhim vazifani yuqori malakali, raqobatbardosh, yuksak ma‘naviyatga ega kadrlarni etishtirishda alohida ahamiyat kasb etadi, shundagina ko‘zlangan ulug‘ maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Jamiyatning oliy ta‘lim oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to‘g‘ri yondashgan holda ularni amalda bajarish bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi kunda jamiyatimizda o‘qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo’lishi lozim chunki, u kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma‘naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Zamon standartlarini amalga tadbiq etish oily ta‘lim talabalaridan nafaqat yuqori malakani balki doimiy kasbiy rivojlanishni, suningdek o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi, yaxshilashi hammaga ma‘lum narsalarni o‘zgartira olishi natijasida ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shuningdek har bir o‘qituvchining an‘anaviy pedagogik fikrlashidan farqli ravishda ta‘lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu borada yangi g‘oyalarni yaratish va mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilish yo‘lida bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflab berish qobiliyati uning o‘zoga xos jihatlaridan biridir. “Kreativ qobiliyat” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan o‘quv fanlarni past o‘zlashtirib, zerikarli deb o‘ylayotgan o‘quvchilarning e‘tiborini fan asosida o‘zlashtirishga jalb qilish;
2. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativ fikrlashida ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan ta‘lim vositalarini tavsiya qilish orqali dars jarayonida samarali foydalanish uchun imkoniyat yaratish.

Bu borada, o‘quvchini qanday ijodiy fikrlashga o‘rgatish mumkin?

Bo‘lajak o‘qituvchilarda erkin fikrlash, darslarni yangi ped-texnologiya va metodlar orqali o‘tib, o‘quvchida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda ulardagi ijodiylik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi darkor.

Ijodkorlik faoliyatini alloma Farobiy “bu jarayonda barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatining hal qiluvchi onlari, odatda, alohida

ISSN 3030-3907

diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlari mavj urgan holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi”, - deb izohlaydi.

E‘tibor beradigan bo‘lsak, inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelamiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va hokazo. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Mana shu ijod tafakkurini shakllantirishda ta‘lim-tarbiya jarayoni etakchi o‘rinda turadi. Pedagoglarda kreativ faoliyatni bilishga oid gnostik, kommunikativ, konstruktiv, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, texnik-texnologik tashkil etishda imkon beradigan malakalardir. O‘quvchilar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash, qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘gri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. O‘quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. [3]

METODLAR


Ayni vaqtda ta‘lim sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi. [1; 196-bet]

Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalaikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizda yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar etishib chiqadi.[2; 21-bet]

Interfaol ta’limda o’qituvchi o’quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo’lib, talaba bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo’ladi. Bunda o’qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o’qitish metodlaridir. Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko’nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o’zlashtirish yo’lidagi o’zaro harakatini hamda o’qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.[1]

[1] Ishmuhammedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 yil.

ISSN 3030-3907



Ta'lim jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati muhim davr hisoblanadi. O‘qituvchilarining ta'limiy o‘yinlarga bo‘lgan munosabati ancha jiddiy bo‘lishi lozim. Bu borada ko‘pchilik o‘qituvchilar bir qator o‘yinlarni darslarda foydalanish uchun qulayligini aytib o‘tdilar. To‘g‘ri foydalanilgan didaktik o‘yinlar darslarda yangi mavzuni bayon qilishda hamda mustahkamlashda eng qulay metod hisoblanadi. Zero, o‘yin bilimlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi har qanday mashaqqatlarni osongina engib o‘tishga, qiyin jarayonni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirgan holda engillatishga yordam beruvchi ta'lim usulidir.

Olimlarning nazariy qarashlariga asosan, kreativ inson ikkita komponentni o‘z ichiga olgan motivatsiya va harakat sifatida bog‘langan xulq-atvor blan bog‘liq. Motivatsiya kasbiy xulq-atvorni shaxsning ichki harakatini anglatadi. Kasbiy xulq-atvorning ushbu asosiy manbasiga e’tibor qaratish har xil kasbiy rivojlanishni talab etadi. Shuning uchun, motivatsiya insonlarning hatti-harakatlariga nisbatan dinamikdir.[4.]

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida kreativ qobiliyatni aniq ta’rifini joriy etish imkoniyati ta’lim tizimiga kirib kelayotgan zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda uning mazmuni dinamikligi, musiqa o‘qituvchisi kreativ faoliyatining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy pedagogikaning eng muhim muammolaridan biri – bu bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kreativ qobiliyati va o‘z-o‘zini rivojlanishiga yordam beradigan ma‘qul pedagogik sharoitlarni aniqlash, kasbiy ijodkorlik bilan tashabbuskorlik, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash, ijodiy kasbiy

ISSN 3030-3907

faoliyat qobiliyati, konstruktiv, nostandart fikrlash va xulq-atvor, shuningdek, ularning tajribasini anglash va rivojlantirish kabi vazifalardan iborat.

Shunga ko‘ra, zamonaviy sharoitda oliy pedagogik ta’limning muhim vazifasi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘zgaruvchan sharoitlarda turli xil o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv yurtlari asosida ishlashga tayyorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni kuchaytirishdir.

NATIJALAR

Demak bo‘lajak o‘qituvchilar muammoli vaziyatlarni turli yo‘llar bilan hal qilishi, o‘quvchilarning o‘zaro muammo echimini topishga ijtimoiy yondashishi, har bir hissiy irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam berishi zarur.

Pedagogik sohaga tayyorgarlik ko‘rsatgan bo‘lajak o‘qituvchi kreativ qobiliyatga ega bo‘lishi bilan birga uning shaxsiy qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Oliy ta‘lim tizimida faoliyat yuritib borayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar quyidagi kreativ sifatlarga ega bo‘lishlari kerak:

- O‘quv va tahlil jarayonlarini tashkil etishda noan‘anaviy yondashish;
- Yangi g‘oyalar ustida ishlash;
- Bir qolipda fikrlamaslik;
- O’ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilmaslik.

Mana shunday kreativ sifatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi kelgusidagi kasbiy faoliyatini tashkil etishdagi ijodiy yondashuvi, iqtidorli va yangi il‘gor talablarning o‘quv faolligini rivojlantirishda xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatishi, pedagogik yutuq va kamchiliklarni mustaqil o‘rganib chiqish, hamkasblar orasida doimiy fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishiga alohida yondashiladi.

XULOSA

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari oliy ta’lim muassasalarida, malaka oshirish kurslarida, shu jumladan, guruhda ishlash, ijodiy guruhlar, o‘qituvchilarning mahorat darslari, masterklasslar, o‘tkazilgan testlar tahlili, turli darajadagi tadbirlar; o‘qituvchilar kengashlari, seminarlar, konferensiyalarda faol ishtirok etish; turli tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish; tajribani umumlashtirish; zamonaviy usullar, shakllar, o‘qitish vositalari va yangi texnologiyalardan foydalanish; o‘qituvchining faoliyatini tahlil qilish va kuzatish; o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi faoliyat turlaridan iborat ekanligi ishda o‘z tasdig‘ini topgan.

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, mashg‘ulotlarni oldindan rejalashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakillantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga undash, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi ularda kreativ salohiyatning boyib borishiga zamin yaratadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchining kreativ fikrlash ko‘nikmalari ulardagi kreativlik qobiliyatini oshirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Aynan mazkur ko‘nikmalar ijodiy faollik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat uchun yo‘naltira olish, muammolarga nisbatan sezgirlik, intellektual qobiliyatlar, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlar, tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, o‘z ustida ko‘proq ishlashi, o‘zini-o‘zi namoyish etishi, atrof-muhitda bo‘layotgan o‘zgarishlardan va yangiliklardan xabardor bo‘lishi, bundan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda, avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg‘ulot turlaridan voz kechib, yangilik yaratishga intiluvchanligi uning kreativ qobiliyatining yanada boyishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng loyiq bahodir”. 196-bet
2. Sh.Mirziyoyev “Bilimli avlod-buyuk kelajakning tadbirkor xalq-farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. T.O‘zbekiston.2018 yil, 22-bet
3. N.Niyazmetova, Sh.Bazarova “O’qituvchining kreativlik qobiliyati”, PERIODICA Journal, Modern Philosopy, Social Sciences and Humanities. ISSN No:2720-4030. Volume 6, May, 2022
4. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285. с
5. Ishmuhammedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 yil.
6. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “O’zbekistonda kreativlikka asoslangan ta’limning vujudga kelishi”. “Pedagogik ta’lim: Xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi an’anaviy ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2022-yil 6 aprel. 826-830 betlar
7. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Oliy ta’limda musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda kreativlik”. Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim

ISSN 3030-3907

mazmunini yanada takomillashtirish. Muammo va echimlar. Respublika ilmiy-nazariy anjumani. 2022 yil 25 aprel. 418-421 betlar

8. M.B.Kambarova “Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari”. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 08.06.2022, Maxsus son. 117-119 betlar.
9. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi” Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 08.06.2022, Maxsus son. 112-116 betlar
10. M.B.Kambarova “Emergence of creative education in Uzbekistan” International Scientific and Practical conference "Actual issues science" and part, 6-441 pages. Committee List for 2021-2022. 160-163 betlar
11. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Cre ativi ty in the development of music and pedagogical activity in higher education” Thematics Journal of Arts and Culture. Informing scientifig practices around the world through research and development. 2022 yil
12. M.B.Kambarova, E.Z.Ro‘ziyeva “Dutor – markaziy osiyoda tarqalgan an’anaviy ikki torli musiqa asbobi.” Central Asian Journal of education and innovation. 13-14-15 betlar. 28.11.2022
13. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Talabalarning musiqiy-pedagogik faoliyatida kreativlikdan foydalanish imkoniyatlari.” Eurasian Journal of Academic Research. Xalqaro ilmiy jurnali (ISSN: 2181 - 2020) 420-424 page
14. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Scientifig-theoritical basis of introducing creativity the development of musical-pedagogikal activity of students” “San’at, til, madaniyat masalalarini ilmiy o’rganishda fan va innovasiyalar” mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman. 198-199-200 betlar. 2023 yil 4-may
15. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda talabalarni kreativlikka tayyorlash”. “San’at, til, madaniyat masalalarini ilmiy o’rganishda fan va innovasiyalar” mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman. 200-202 betlar. 2023 yil 4-may
16. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev “Ijodiy ta’limning paydo bo’lishi”. So’z san’ati xalqaro jurnali. 1-maxsus son. 21-24. 20-03.2023
17. M.B.Kambarova “O’quvchiarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari” Scientific journal Scholar volume2, Issue 3. ISSN 2181-4147 VOLUME2, ISSUE 3 JANUAR 31.01. 2024. 36-40 betlar

ISSN 3030-3907

18. M.B.Kambarova “Bo’lajak musiqa o’qituvchilarida kreativlik qobiliyatlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari”. International scientifig-online conference “Science and innovation in the education system” with an article enteed. 11.03.2024. 29-34 betlar
19. Turaevich Y. J., Botirovna K. M. Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education //Thematics Journal of Arts and Culture. – 2022. – Т. 6. – №. 1.

ISSN 3030-3907